

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: **81:44**

ORCID: 0000-0006-9139-2143

IXTISOSSLASHGAN MATNLAR TARJIMASIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TADQIQI

Abdullaeva Shohida Norqulovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd),

Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Elektron pochta: shohi66@mail.ru

Annotatsiya: Maxsus matn tildagi murakkab, ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, grammatik va leksik tuzilmalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Binobarin, hissiy rangbaranglikdan istisno, aniq va o‘ta mukamal material taqdim etish uchun, bunday matnlarni tarjimon yozish va tarjima qilish xususiyatlarini bilish ko‘nikma va malakalarni ta‘lab qiladi. Bundan tashqari, tegishli atamalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi, chunki ma‘lum bir atamaning noto‘g‘ri qo‘llanilishi bayonotning semantik ifodasiga bevosita ta‘sir qilishi va shu bilan birga idrok etish va uni to‘g‘ri talqin qilishga ta‘sir qilishi mumkin. Tilshunoslik fanining tarjima nazariyasi va amaliyotiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Boshqa tomondan tarjima tilshunoslik nazariyasidan ko‘ra ancha ko‘proq biiimlami o‘z ichiga oladi. Semantikaga qiziqish uyg‘otishdan oldin tarjimonlar atamashunoslik bilan yaqindan shug‘ullanganlar. Tarjimonlar uchun tarjima jarayoni asosiy matndan to‘g‘ri terminni tanlay bilish hisoblangan. Terminologiya (atamashunoslik) bo‘yicha maxsus lug‘atlar yaratilgan. Ko‘pchilik tarjimonlarning ilmiy ishlari terminologiyaga bag‘ishlangan. Eng mos muqobilni topish tarjimada juda muhim sanaladi, bu sohada tilshunoslik nazariyasining hissasi beqiyosdir. Tarjimon odatda asliyat tilidagi eng yaqin muqobilni tarjima qilinayotgan tilga moslashga harakat qiladi. Tarjima ilmiy-nazariy o‘rganish ob‘yekti bo‘lishi zarur. Unda tahlil va uyg‘unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e‘tibor qilishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Tarjima murakkab jarayon bo‘lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o‘z ichiga oladi. Tarjimaning har xil aspektlari yuqoridagi fanlar metodlari

bilan o‘rganilishi mumkin. Shu kungacha tarjima ustida olib borgan ko‘pchilik nazariyilmiy tadqiqotlar tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Tarjimaning lingvistik nazariyasi turli tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi nutq muloqot formalarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Maxsus tarjima, operativ yoki apellyativ ma’lumotlar, kognitiv ma’lumotlar, asliyat tili, tillararo transformatsiyalar, ekvivalentlik mohiyati, leksik birliklar, tarjima, tematika, transliteratsiya va transkripsiya.

ИССЛЕДОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К ПЕРЕВОДУ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация: Специальный текст — сложное, многогранное явление в языке, требующее тщательного внимания к грамматическим и лексическим структурам. Поэтому для того, чтобы представить исключительный, понятный и максимально подробный материал, лишенный эмоциональных оттенков, переводчику необходимы навыки и квалификация, знание особенностей написания и перевода таких текстов. Кроме того, важную роль играет использование соответствующей терминологии, поскольку неправильное использование того или иного термина может напрямую повлиять на смысловое выражение высказывания, а вместе с тем и на его восприятие и правильную интерпретацию. Вклад языкознания в теорию и практику перевода неизмерим. С другой стороны, перевод включает в себя гораздо больше, чем просто лингвистическую теорию. Прежде чем заинтересоваться семантикой, переводчики плотно занимались терминологией. Для переводчиков процессом перевода считается возможность выбрать нужный термин из основного текста. Созданы специальные словари по терминологии (терминологии). Большинство научных трудов переводчиков посвящено терминологии. Поиск наиболее подходящей альтернативы очень важен в переводе, в котором вклад лингвистической теории неизмерим. Переводчик обычно пытается подобрать ближайшую альтернативу исходного языка целевому языку. Перевод должен быть объектом научно-теоретического изучения. Следует сосредоточить внимание на процессе анализа и согласования, чему следует придать значение в тексте, какая информация необходима и на что обратить внимание, чтобы достичь цели. Перевод — это сложный процесс, включающий в себя лингвистику, психологию, культуру, литературный процесс и другие факторы. Различные аспекты перевода можно изучать, используя методы вышеперечисленных дисциплин. До сих пор большая часть теоретических исследований по переводу проводилась лингвистами. Лингвистическая теория перевода изучает формы речевого общения между носителями разных языков.

Ключевые слова: Специальный перевод, операциональная или апеллятивная информация, когнитивная информация, исходный язык, межъязыковые преобразования, природа эквивалентности, лексические единицы, перевод, тематика, транслитерация и транскрипция

RESEARCH ON MODERN APPROACHES IN THE TRANSLATION OF SPECIALIZED TEXTS

Annotation: A special text is a complex, multifaceted phenomenon in the language, requiring careful attention to grammatical and lexical structures. Therefore, in order to present an exceptional, clear and highly detailed material, devoid of emotional nuances, the translator needs skills and qualifications, knowledge of the features of writing and translating such texts. In addition, the use of appropriate terminology plays an important role, since the incorrect use of a particular term can directly affect the semantic expression of the statement, and at the same time affect its perception and correct interpretation. The contribution of linguistics to the theory and practice of translation is immeasurable. On the other hand, translation includes much more than just linguistic theory. Before becoming interested in semantics, translators were closely involved in terminology. For translators, the process of translation is considered to be the ability to select the desired term from the main text. Special dictionaries on terminology (terminology) have been created. Most of the scientific works of translators are devoted to terminology. Finding the most suitable alternative is very important in translation, where the contribution of linguistic theory is immeasurable. A translator usually tries to select the closest alternative to the source language for the target language. Translation should be an object of scientific and theoretical study. Attention should be focused on the process of analysis and coordination, what should be given meaning in the text, what information is necessary and what to pay attention to in order to achieve the goal. Translation is a complex process that includes linguistics, psychology, culture, literary process and other factors. Various aspects of translation can be studied using the methods of the above disciplines. Until now, most theoretical research on translation has been conducted by linguists. Linguistic theory of translation studies the forms of speech communication between speakers of different languages.

Key words: Special translation, operational or appellative information, cognitive information, source language, interlingual transformations, the nature of equivalence, lexical units, translation, thematics, transliteration and transcription.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik o‘rganadigan bir qator masalalar ichida tarjima yoki u bilan bog‘liq jarayon tillararo nutqiy faoliyatning lingvistik jihatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tarixidan ma‘lumki, qadimda yashagan odamlar tillari bir-biridan farq qilgan bo‘lib, ushbu qabilalar o‘rtasidagi muloqotni o‘rnatishda ikki tilni o‘zlashtirgan bilingvistlar yordam berishgani shundan dalolat beradiki, tarjima, shak-shubhasiz, inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, o‘tmishdayoq shakllangan. Keyinchalik, yozuvning paydo bo‘lishi bilan og‘zaki nutqni bir tildan ikkinchi tilga o‘giruvchi tarjimon – tilmochlarning safiga turli tematikali, shuningdek, rasmiy, diniy, ish yuritishga oid yozma matnlarni o‘giruvchi tarjimonlar ham qo‘shildi. Demak, anglash mumkinki, tarjimaviy faoliyat jamiyatda eng muhim ijtimoiy vazifani bajaribgina qolmay, undagi tillararo muloqotni amalda joriy etdi. Ta’kidlash joizki, yozma tarjimaning taraqqiy etishi tarjima tili foydalanuvchilariga

adabiyot va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bir-birini to‘ldirib borishiga yordam bergan o‘zga millat madaniy yutuqlarini o‘z xalqiga tadbiq etishga ko‘mak berdi. Xorijiy tillarni bilish asliyat tilidagi asarlar bilan tanishish imkonini yaratadi, biroq, har bir odamda hech bo‘lmaganda, bitta chet tilini mukammal o‘zlashtirib, o‘sha tilda kitoblar mutoala qilish qobiliyati bo‘lmasligi mumkin. Tarjima amaliyoti vositasida Gomer, Shekspir, Dante va Gyote kabi yozuvchilarning shox asarlari tarjimalari bilan butun insoniyat tanishdi.

Ma’lumki, tarjimon asliyat tili foydalanuvchilari xususidagi madaniy, tarixiy va til haqidagi bilimlarni mukammal egallasagina, tarjima matni ijtimoiy funksiyasini to‘laqonli ifodalashi mumkin bo‘ladi. Bunga T.Karleylning “O‘tmish va bugun” asarini ingliz tilidan nemis tiliga o‘giran tarjimonning quyidagi fikri dalil bo‘la oladi, “agar tarjimon ingliz tilining o‘ziga xosligi va u xususida chuqur bilimga ega bo‘lmasa, inglizlar hayot tarziga urg‘u beruvchi mubolag‘ali ifodalarni anglolmay, anchagina xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lar edi”. Bundan anglashiladiki, asliyat tili xususidagi chuqur bilimga ega bo‘lish bilan bir qatorda, tarjima tili va uslubiga yuqori talab qo‘yiladi. Ushbu masalaga yangillik yaratish maqsadida ayrim tarjimonlik maktablarining terminlar, frazeologik birliklar, aforizmlar, ekspressif epitetlar va shu kabi tarjimasi qiyin bo‘lgan asliyat tili unsurlarini o‘girish borasidagi ko‘pgina qiziqarli tavsiya va takliflarni amaliyotga tadbiq etilganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. 1950-yillarda shakllangan lingvistik tarjima nazariyasi o‘z rivojlanish bosqichlarida har bir davrga mos bo‘lgan lingvistik yo‘nalishlar va nazariy konsepsiyalarni faol qo‘llab kelgan. Tadqiqotchilar ishlarida qiyosiy va tipologik lingvistika, N. Xomskiyning transformatsion grammatikasi, J. Firt va M. A. Xollideyning funksional nazariyasi, shuningdek, lingvistik pragmatika va kommunikatsiya nazariyasining tamoyillari aks etgan. So‘nggi yillarda esa tarjima faoliyatining kognitiv va psixolingvistik jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda.

Taniqli olimlar A.A. Leontev, I.A. Zimnyaya, Z.D. Lvovskaya, Yu.A. Sorokin, T.A. Kazakova, E.S. Petrova, V.I. Xayrullin, M.Ya. Tsbilling, R. Bell, U. Eko, J. Dansett, J. Delil, D. Kirali va A. Noybert) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tarjima jarayoni avvalo evristik nutq va tafakkur faoliyati sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda tarjimon til va mazmun transformatsiyasini ma’lum ijtimoiy-madaniy kontekstda amalga oshiradi. Bugungi kunda tarjima jarayonini chuqur o‘rganish uchun eksperimental tadqiqot usullari, ayniqsa, psixolingvistik metodikalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu yondashuvlar tarjima nazariyasida yangi istiqbollar ochib, tarjimaning nafaqat tilshunoslik, balki tafakkur jarayonlarining ham ajralmas qismi sifatida o‘rganilishini ta’minlaydi.

Ushbu tendentsiya tarjima nazariyasining sof lingvistik yondashuvlardan bosqichma-bosqich uzoqlashayotganini anglatadi. An’anaviy nazariyalar doirasida tarjima jarayoni bosqichma-bosqich transformatsiya sifatida talqin qilinardi, ya’ni bitta til matni boshqa tilga ko‘chirilganida, ushbu jarayon mazmuniy yoki funksional ekvivalentlikka asoslanardi. Bunday yondashuvda ikki til birliklari o‘rtasidagi ekvivalent munosabatlar til tizimining obyektiv jihatlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Mazkur konsepsiya til tizimini tarjima

jarayonining asosiy ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib, tarjimon harakatlarini faqat tilning strukturaviy va semantik qoidalari bilan cheklab qo‘yadi. Biroq, zamonaviy ilmiy yondashuvlar tarjimoni kognitiv va nutqiy-tafakkur jarayonlari nuqtai nazaridan o‘rganishni ilgari surmoqda. Endi asosiy e‘tibor tarjimonning ongli faoliyatiga, ya‘ni til tizimlaridan ijodiy foydalanish va mazmunni sotsiolingvistik kontekstda talqin qilish qobiliyatiga qaratiladi. Bunday yondashuv tarjimonni ikki tilni bir-biriga texnik tarzda transformatsiya qiluvchi vosita sifatida emas, balki nutqiy-tafakkur faoliyatini amalga oshiruvchi ijodiy subyek sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, zamonaviy tarjima nazariyasi faqat til tizimlari o‘rtasidagi ekvivalentlik tushunchasi bilan cheklanib qolmay, tarjima jarayonida yuzaga keladigan kognitiv, psixolingvistik va madaniy omillarni ham inobatga olishni talab qilmoqda. Bu yondashuv tarjima nazariyasining metodologik asoslarini chuqur qayta ko‘rib chiqishga undab, uni yanada kengroq va ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Metodologiya. Tarjima nazariyasining metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish zarurati, shuningdek, amaliy ehtiyojlar bilan ham bog‘liq. Xususan, tarjima o‘rgatishda ekvivalentlik, matnlarning bir xillik yoki o‘xshashlik kabi an‘anaviy tushunchalar asosida ish olib borish ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlarni shakllantiradi va xatolarga olib keladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, tarjima qilinayotgan matnning tabiiylikdan uzoqligi yoki sun‘iyligi ana shunday noto‘g‘ri tushunchalarning oqibatidir.

Shunday qilib, nazariyaning zamonaviy yondashuvi tarjima faoliyatiga subyektiv tafakkur va kognitiv jarayonlarni jalb etib, unga ko‘proq ijodiy va ilmiy ko‘z bilan qarashni taklif qiladi.

A.V.Fedorov tarjima nazariyasini boshqa fanlar bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqish imkoniyatini tan olgan bo‘lsa-da, uni asosan lingvistik soha sifatida belgilaydi⁷³. U kabi fikrlovchi yondashuv tarafdorlari barcha turdagi matnlarni qamrab oladigan umumiy tarjima nazariyasini yaratishga harakat qildilar. Ushbu sohada lingvistik nazariyaga asoslangan bilimlar bilan cheklanibgina qolmay, tadqiqot ob‘yekti, predmeti ko‘lamini kengaytiruvchi yangi konsepsiyalar yaratildi. Bu boradagi tadqiqotlari bilan ko‘zga ko‘ringan lingvist V.N.Komissarovning fikricha, “tarjimada tillar muhim ahamiyat kasb etganligi bois, zamonaviy tarjimashunoslikda lingvistik nazariyalar yetakchi o‘rinni egallaydi”⁷⁴. Bilamizki, til qonuniyatlari uning faqat va faqat taraqqiy etishi va sayqallanishiga xizmat qilib, takomillashib borgan. Tildagi har bir unsur tabiati tarjimada inobatga olingan holda o‘g‘irilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

L.S.Barxudarov esa, “tarjimaning lingvistik nazariyasi predmeti tarjima jarayonini ilmiy tavsiflash bilan tillararo aloqalarni transformatsiyalash, ya‘ni bir tildagi matnni boshqa tildagi muqobil matnga aylantirishdir”⁷⁵, – degan fikrni ilgari surgan. Uning ta‘kidlashicha, tarjima lingvistik nazariyasi “asliyat va tarjima tillaridagi barcha xususiyatlarni emas, balki ijtimoiy,

⁷³ Федоров, Андрей Венедиктович. Введение в теорию перевода : (лингвистич. проблемы). — 2-е изд., перераб. — Москва : Изд. лит. на иностр. яз., 1958. — 374 с. : 20 см — (Б-ка филолога).

⁷⁴ Комиссаров В. Н. Слово о переводе. — М., 1973.

⁷⁵ Бархударов Л. С. Язык и перевод. — М.: Международные отношения, 1975.

jumladan, muntazam takrorlanadigan, tipik munosabatlarni o‘rganishi kerak”. Ya’nikim, tillarning ijtimoiy jihatlari bir-birini to‘ldirishga xizmat qilib, undagi ushbu holatlar millatlar madaniyatini boyitadi.

Natijalar. Matnlarni o‘girishdagi asosiy jihatiga kelsak, ular qurilishining tartibsizligi va madaniy ma’lumotlarning ko‘pligi sabab, tarjimaning lingvistik nazariyasi ushbu birliklar tarjimaviy amaliyot uchun birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirsa-da, o‘zining tarkibiy qismiga o‘zlashtira olmaydi. Tarjima sohasining vazifalarini V.N.Komissarov tadqiqotlarida quyidagicha belgilagan:

1) tarjimaning umumiy lingvistik asoslarini izohlash va tavsiflash, ya’ni, til tizimining o‘ziga xosligi va til voqelanish qonuniyatlari o‘girish jarayonining asosini tashkil etib, uni amalga oshirilishi va chegaralarini aniqlab beradi;

2) tarjimani lingvistik tadqiqotlar ob’ekti sifatida aniqlash, uning til vositasida qurilgan boshqa tillararo aloqalardan farqini ko‘rsatish;

3) tarjima faoliyati turlarini klassifikatsiyalovchi qonuniyatlarni ishlab chiqish;

4) ekvivalentlik mohiyatini asliyat va tarjima matnlarining kommunikativ tengligini ta’minlovchi asos sifatida ochib berish;

5) tillarga oid turli kombinatsiyalar tarjimasi uchun xususiy nazariyalarni yaratishga xizmat qiladigan tamoyillar ishlab chiqish;

6) asliyat matnidan tarjima matnini yaratish jarayonidagi faoliyatning umumiy ilmiy qonuniyatlarini dalillash;

7) pragmatik va sotsiolingvistik omillarni tarjima jarayoniga ta’sirini aniqlash;

8) tarjima me’yori tushunchasiga aniqlik kiritish va tarjima sifatini baholovchi tamoyillarni yaratish.

Tarjima lingvistik nazariyasini rivojlantirishga bo‘lgan harakat va urinishlar avtomatlashtirilgan tarjimani paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Tarjimaning tilshunoslikka asoslangan ta’limotini ishlab chiqishga, uni mukammallashritishga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar olib borildi⁷⁶.

Lingvistik kontekst til birliklarini amalda joriy etilishining referensial vazifasi hisoblanib, faqat nutqiy faoliyatdagina so‘zlar tashqi olamdagi muayyan narsa va hodisalarni belgilash hamda anglatish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Muloqot lingvistik kontekstida polisemantik leksemalar ma’nolari farqlanib, ular ma’lum ma’noda cheklanadi. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida quyidagi leksik birliklar va ularning tarjimalariga murojaat etamiz:

⁷⁶ Алексеева И.С. Введение в переводоведение. – СПб., 2004; Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М., 2008; Виноградов В.С. Перевод: Общие и лексические вопросы. – М., 2004; Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М., 2004; Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2002; Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М., 1990; Нелюбин Л.Л., Хухуни Г.Т. Наука о переводе: (История и теория с древнейших времен до наших дней). – М., 2006; Нестерова Н.М. Текст и перевод в зеркале современных философских парадигм. – Пермь, 2005; Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 2002.

cost – ingliz tilidagi so‘zning bir necha ma’nolari mavjud bo‘lib, ular: “*baho, narx*”, “*harajatlar*”, “*necha pulga baholanganligi*”, “*narxini kelishmoq*”, “*narxini aniqlamoq*”, “*hisoblamoq*”.

Ushbu so‘zning berilgan barcha ma’nolarining turli kontekstlarda voqelanishi kuzatishimiz mumkin:

prime cost – *asosiy harajat*: Due to the relatively low *prime cost*, construction of walls of these blocks is too much cheaper than that of brick and even gas concrete blocks.

Sifat so‘z turkimiga oid so‘zlar bilan ot qo‘llangandagi holatni kuztamiz: *angry* sifati *look* fe‘li bilan qo‘llanilganda *jahli chiqqan ko‘rinmoq*, “*The town has a European look*” gapidagi kabi *European* leksemasi bilan birgalikda *ko‘rinish* ma’nolariga ega bo‘lib, keyingi misollarga murojaat etamiz:

- *accomodate* leksik birligi *with loan* birikmasi bilan ifodalanganda *qarzga pul bermoq*, masalan: I needed money, and they *accommodated* me with a loan⁷⁷.

- *new concepts* so‘zlari bilan *o‘z ichiga olmoq* ma’nolarini anglatib, quyidagi gapda qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin: Any language must *accommodate* new concepts

- *application for job* – jumlası *ishga joylashish uchun hujjat topshirmoq* ma’nosini aks ettiradi: Don’t you send your *application for a job* to the manager of a company without ever having seen him?

- *application of funds* so‘z birikmasi *mablag‘larni o‘zlashtirish* degan ma’noga ega bo‘lib, gapda quyidagicha ifodalanadi: Budget expenditures have been reduced, the *application of funds* for National Projects falls behind the schedule.

Tarjimashunoslik nazariyasi asosan matnni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonida tarjimonning aqliy strategiyasi, uning tarjima usullaridan foydalanishi kabi jihatlarni o‘rganadi. Qanchalik bu jarayonni kuzatish mushkul hisoblansa, shunchalik uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib, bilvosita usullar ishlab chiqilmoqda.

Asliyat matnidan tarjima matnini yaratishda turli nazariy modellar, amaliyotlar, va shuningdek, psixolingvistik tajribalar keng qo‘llaniladi. Asosan tarjima matni foydalanuvchilariga yo‘naltirilgan, tarjimaning pragmatik yoki kommunikativ ta’siri va bunday ta’sirga erishish yo‘llarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar zamonaviy tarjimashunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Muxokama qismi. Tarjima jarayonini til kommunikatsiyasining bir turi sifatida lingvistik tasvirlash zarurati, hozirgi kunda ko‘p muhokama qilinayotganidek, faqatgina B.A. Larin aytganidek, "har qanday tarjima lingvistik tayyorgarlik bilan boshlanishi va adabiy ijod bilan yakunlanishi" zaruriyati bilan bog‘liq emas. Larin ushbu fikrini davom ettirib, "birinchi va oxirgi jihatning muhimligi haqida bahs yo‘q" deb ta’kidlaydi. Tarjima va lingvistika o‘rtasidagi yaqin aloqani aniqlaydigan asosiy jihat shundaki, tarjimada ham, bir tildagi kommunikatsiyada

⁷⁷ Musaev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005.2-B.

bo‘lgani kabi, inson tilining asosiy vazifasi — muloqot vositasi sifatidagi funksiyasi amalga oshiriladi⁷⁸.

Bundan tashqari, tarjima muammosi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalari bilan uzviy bog‘liq: til belgisi semantikasi, gapning aktual bo‘linishi, til belgilarining funksiyalari, shuningdek, til va semantik universalialar masalalari. Aynan shular tarjimani nafaqat amaliy tilshunoslik, balki nazariy tilshunoslikning ham markaziy vazifalaridan biriga aylantiradi. V.I. Lenin "Kim umumiy masalalarni hal qilmay turib, xususiy masalalarga kirishsa, u har qadamda o‘zidan bexabar holda shu umumiy masalalarga duch keladi" deb ta’kidlagan edi. Tarjima nazariyasida bunday umumiy, tugunli masalalardan biri — ekvivalentlik masalasidir.

Tarjimon asliyat matni kommunikativ funksiyasini yoki tarjima matni foydalanuvchilariga ta’sir etadigan boshqa istalgan natijani aks ettirishga intilishi mumkin. Shu bilan birga, u ma’lum bir shaxsga yoki ma’lum bir madaniyat vakiliga tarjimada urg‘u berishi mumkin. Bu borada R. Jakobson, ma’no va kommunikatsiya o‘rtasidagi aloqani o‘rganib, til va uning semantik strukturasi haqida ko‘plab nazariyalar taklif qildi. "Til — bu ma’no va shaklning birligi; har bir til belgilari o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud."⁷⁹ Yana shuni inobatga olish kerakki, tarjima matni aynan qaysi doiradagi auditoriyaga mo‘ljallanganligiga qarab turli usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Har qanday holatda ham tarjima tili ommasiga va ularning madaniyati talablariga mos holda tarjima matniga o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu kabi lingvistik tarjima tadqiqotlari bir-birini istisno qilish barobarida to‘ldirib ham boradi. Ko‘pgina tarjimashunoslar tillararo muloqotning turli aspektlarini o‘rganish asnosida tarjima faoliyatini har tomonlama tadqiq etishga harakat qilmoqdalar. Olib borilgan tadqiqotlarda tarjimaning lingvistik nazariyasi xususidagi fikr va mulohazalarga duch kelish mumkinki, ularda "lingvistik tarjimaning nazariy qismi"⁸⁰ yoki "tarjima jarayonini tillararo transformatsiya"⁸¹ sifatida tavsiflangan. Tarjimonlik faoliyati kasb maqomiga ega bo‘lib, tarjima nazariyasi chet tillarni o‘qitish metodikasi asosida kasbiy tarjimani fan sifatida o‘qitishning samarali usullarini ishlab chiqishning nazariy asosiga aylandi. Albatta, tarjima nazariyasi ham ushbu faoliyat bilan hamohang rivojlangan bo‘lib, bu davrdagi tadqiqotlar markazida til tizimlari, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlarni o‘rganish muhim sanalib, barchasi tilshunoslik qonuniyatlariga asoslangan. Bu borada A.V. Fyodrov quyidagicha fikr yuritadi, "tarjima nazariyasini lingvistik me’yorga asoslanganligini ta’kidlasada, uni boshqa sohalar bilan uyg‘unlikda o‘rganish mumkinligini tan oladi"⁸².

⁷⁸ Newmark P. Approaches to Translation. – New York a.o.: Prentice Hall, 1988. – P. 19.

⁷⁹ Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation. – Cambridge, 1959. – P. 232. = Якобсон Р. О лингвистических аспектах перевода. // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. М., 1978.

⁸⁰ Комиссаров В. Н. Современное переводоведение : курс лекций / Комиссаров. М. : Э, 1999. 192 с.

⁸¹ Бархударов Л. С. язык и перевод : опросы общей и частной теории перевода / Бархударов. М. : Междунар. отношения. 1975. 240 с.

⁸² А.В. Фёдоров «Введение в теорию перевода», 2002.

Tarjima faoliyatidagi bunday yondashuv bir qancha masalalarni jumladan, o‘g‘irishda tillararo muvofiqlikni o‘rnatish⁸³, variantlar klassifikatsiyasi, muqobilga ega bo‘lmagan leksemalar, realiyalar, atoqli otlar, frazeologizmlar tarjimalarida grammatik mos kelishi va asliyat hamda tarjima matnlaridagi tafovutlarni aniqlash borasidagi muammolarga oydinlik kiritilishini taqozo etdi. Shu ma’noda, qonuniy asosini tarjimaviy amaliyotlarni aniqlashtirish va tizimlashtirish, turli leksik hamda grammatik transformatsiyalarni tavsiflash tashkil etgan.

Xulosa qismi. Emotiv funksiyada verbal xabar, agar u so‘zlovchi (muallif)ga yo‘naltirilgan bo‘lsa, emotiv funktsiyani amalga oshiradi. Bu funktsiya so‘zlovchining aytayotgan yoki yozayotgan narsasiga nisbatan munosabatini ifodalaydi va his-tuyg‘ularni aks ettiradi. Barcha shaxsiy yozuvlar, avtobiografiyalar, interyutsiya va boshqa ifodalar ushbu til funktsiyasiga kiradi.

Konativ funktsiya, verbal xabar tinglovchi yoki qabul qiluvchiga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosan, muayyan harakatga yoki reaksiyaga undash maqsadida ishlatiladi. Imperativ jumlar, siyosiy nutqlar tilning konativ funktsiyasidan keng foydalanadi. Ushbu funktsiya doirasida ikkinchi shaxs zamirlariga (masalan, "sen" yoki "siz") ko‘plab hollarda murojaat qilinadi. Shuningdek, buyruqlar va duolar ham konativ funktsiyaning namunalari sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Konativ funktsiya kommunikatsiyada muhim rol o‘ynab, so‘zlovchining qabul qiluvchiga ma’lum bir xabarni etkazish va uni harakatga keltirish niyatida ekanini ko‘rsatadi.

Referensial funktsiya verbal xabarning eng keng tarqalgan funktsiyasidir, chunki ko‘pgina xabarlar kontekstga bog‘liq. Bu funktsiya ma’lum obyektlar, g‘oyalar yoki narsalarga murojaat qiladi. Shuning uchun, kontekst element bo‘lganda, tilning mos funktsiyasi referensial yoki denotativ hisoblanadi.

Fatik funktsiya ba’zi nutq aktlari yoki xabarlar fatikdir. Bunday xabarlar aloqa o‘rnatish yoki davom ettirishga xizmat qiladi. Bu tilning ijtimoiy jihatdan foydali funktsiyasidir. Fatik yondashuv moliya kontekstida ijtimoiy muloqotni o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, moliya-bank konsultatsiyasi davomida mijoz bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish va ishonch muhitini yaratishda foydalaniladi. Fatik funktsiya ko‘pincha asosan muomala va aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan bo‘lib, ma’lumotni uzatishda muhim bo‘lmasligi mumkin. Qabul qiluvchi fatik yondashuvda ko‘proq e’tibor berilgan holatlar, qabul qiluvchining qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olmasligi mumkin, bu esa samaradorlikni pasaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Алексеева И.С. Введение в переводоведение. – СПб., 2004J a k o b s o n R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation. – Cambridge, 1959. – P. 232. = Я к о б с о н Р. О лингвистических аспектах перевода .// Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. М., 1978.

2. Б а р х у д а р о в Л. С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975.

⁸³ Латышев Л.К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. М., 1988. С. 34. 2 Фёдоров А.В. Введение в теорию перевода: (Лингвистические проблемы). 2-е изд., перераб. М., 1958. С. 15.

3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М., 2008.
4. Бархударов Л. С. Язык и перевод : опросы общей и частной теории перевода / Бархударов. М. : Междунар. отношения. 1975. 240 с.
5. Виноградов В.С. Перевод: Общие и лексические вопросы. – М., 2004.
6. Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М., 2004.
7. К о м и с с а р о в В. Н. Слово о переводе. – М., 1973.
8. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М., 1990.
9. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2002.
10. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода : учеб. пособие /Комиссаров. М. : Че о, 1999. 136 с.
11. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение : курс лекций / Комиссаров. М. : Э, 1999. 192 с.
12. Musaev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005.2-B.
13. N e w m a r k P. Approaches to Translation. – New York a.o.: Prentice Hall, 1988. – P. 19.
14. Фёдоров А.В. «Введение в теорию перевода», 2002.
15. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 2002.
16. Федоров Андрей. В. Введение в теорию перевода : (лингвистич. проблемы). — 2-е изд., перераб. — Москва : Изд. лит. на иностр. яз., 1958. — 374 с. : 20 см — (Б-ка филолога).
17. Тарасевич, Т.М. (2007). Особенности функционирования экономической терминологии в современный рекламный дискурс. Дис. кандидата филологических наук: 10.02.19. ТГУ, Тюмень, 257 с.
18. Файзова, Н.А. (2008). Функциональные особенности новой экономической терминологии в публицистический текст. Дис. Кандидат филологических наук: 10.02.01. КГУ имени В.И.Ульянов-Ленин. Казань, 221 с.
19. Норд К. Функции в текстах и в переводах. Избранные произведения / К. Норд. Под редакцией Е. Ю. Мощанской. Пермь: ПНИПУ, 2020. 209 с.